



O'QUVCHILARDA KASBIY MOTIVATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

Namangan shahar Uchqo'rgon tuman 48-DMTT psixologi

Adasheva Muslina Odiljon qizi

adashevamuslima6@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada o'quvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishga yo'naltirilgan samarali metodlar yoritilgan. Ta'lif tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida kasbiy yo'naltirish jarayonida individual yondashuv, qiziqish va ijtimoiy talablarni hisobga olgan holda, motivatsiyani rivojlanishiga zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar, faoliyatga asoslangan o'quv metodlari va interaktiv usullar orqali o'quvchilarning kasbiy o'zini anglash jarayoniga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy o'zini anglash, maqsad qo'yish, mustaqil qaror qabul qilish kabi motivatsion mexanizmlarning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ham berilgan. Mazkur maqola maktab psixologlari, pedagoglar hamda ota-onalar uchun foydali nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: kasbiy motivatsiya, kasb tanlash, o'quvchi shaxsini rivojlanishiga, individual yondashuv, interaktiv metodlar, psixologik tayyorgarlik, o'zini anglash, kasbiy faoliyatga yo'naltirish.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lif jarayonida o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan yondashuvlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, umumiy o'rta ta'lif muassasalarida kasb-hunar ta'limga tayyorgarlik jarayoni, o'quvchilarni bozor talablari asosida yetuk kadr sifatida shakllantirish masalalari e'tibor markazida turibdi. Bu borada eng muhim omillardan biri — o'quvchilarda kasbiy motivatsiyani erta bosqichlardan shakllantirish hisoblanadi. Kasbiy motivatsiya — bu o'quvchining kelajakdagi faoliyatini ongli ravishda



belgilab olishi, o‘z qiziqishlari, intilishlari va shaxsiy imkoniyatlari asosida kasb tanlashga bo‘lgan ichki ehtiyojidir. Shunday ekan, maktab davridayoq o‘quvchilarda kasbiy motivatsiyani uyg‘otish, uni mustahkamlash va ijobjiy yo‘naltirish uchun samarali metodlarni qo‘llash muhim vazifadir.

Mazkur maqolada o‘quvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan psixopedagogik metodlar, ularning samaradorligi, shuningdek, ta’lim muassasalari va pedagoglarning bu boradagi vazifalari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

O‘quvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish ko‘p bosqichli, tizimli va izchil olib boriladigan pedagogik jarayondir. Bu jarayon bir necha metod va yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Quyida ana shu metodlarning ayrim samarali turlari haqida batafsil to‘xtalamiz.

Kasbiy yo‘naltirish suhbatlari va treninglar

O‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan ochiq suhbatlar, treninglar va seminarlar ularning o‘z imkoniyatlarini anglashlari, kasblar haqidagi bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Suhbatlar jarayonida o‘quvchilarga turli kasblar haqida ma’lumotlar beriladi, qiziqarli misollar, hayotiy voqealar orqali kasblarning jamiyatdagi o‘rni yoritiladi. Treninglar esa o‘quvchining o‘zini tahlil qilish, muayyan kasbga moyilligini aniqlash va bu yo‘nalishda ichki motivatsiyani uyg‘otishga xizmat qiladi.

Rol o‘ynash va modellashtirish metodlari

O‘quvchilarning kasblarga nisbatan tasavvurini boyitish, ularni o‘zlarini turli kasb egasi sifatida his qilishlari uchun ro‘llar o‘ynash va kasbiy faoliyatni modellashtirish samarali usullardan biridir. Masalan, “Kasb kuni”, “Men kelajakdagi shifokorman”, “Kichik muhandislar maktabi” kabi tadbirlar orqali o‘quvchilar amaliyotga yaqin muhitda o‘zlarini sinab ko‘radilar.

Kasbiy yo‘nalishdagi loyihibiy ishlar

O‘quvchilarni ijodiy va amaliy faoliyatga jalb qilish orqali ularda kasbga bo‘lgan qiziqishni oshirish mumkin. “Mening orzuimdagи kasb” mavzusidagi loyiha



ishlari, kasbiy mavzularda slaydlar tayyorlash, mini-tadqiqotlar olib borish o‘quvchilarning tanlagan sohalariga nisbatan yanada chuqurroq qiziqish uyg‘otadi.

Real kasb egalari bilan uchrashuvlar

Turli kasb egalari — shifokor, muhandis, dizayner, huquqshunos, o‘qituvchi va boshqalar bilan uchrashuvlar tashkil etish orqali o‘quvchilar hayotiy tajribalardan bahramand bo‘ladilar. Bunday muloqotlar kasblarning asl mohiyatini anglash, real voqelikda ularning ijtimoiy vazifasini tushunishga yordam beradi.

Kasb-hunar ko‘rgazmalarini va amaliy ekskursiyalar

O‘quvchilarda kasbiy motivatsiyani oshirishda ko‘rgazma, laboratoriya, zavod-fabrikalarga ekskursiyalar orqali ularni amaliy faoliyatga jalb qilish katta rol o‘ynaydi. Bu orqali o‘quvchi kasbga nisbatan real taassurot hosil qiladi, o‘zini aynan shu faoliyatda tasavvur qila boshlaydi.

Psixologik test va so‘rovnomalar asosida tahlil

Kasbiy yo‘nalishni belgilashda o‘quvchilarning psixologik holati, intilishlari va qobiliyatlarini aniqlash muhimdir. Shu sababli, maktab psixologlari tomonidan olib boriladigan kasbiy yo‘nalishdagi testlar, qiziqishlarni aniqlovchi so‘rovnomalar asosida o‘quvchilarga mos tavsiyalar berilishi lozim.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jahbalariga chuqur kirib kelgan. Ta’lim tizimida, ayniqsa, kasb-hunar yo‘naltirish jarayonida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarda motivatsiyani oshirishga xizmat qilmoqda. Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar, kasbiy testlar, video darslar yordamida o‘quvchilar o‘zlariga mos kasblarni aniqlab, ular bo‘yicha puxta tasavvurga ega bo‘lishmoqda.

Xususan, “professiya bo‘yicha sinov darslari” o‘tkazilishi, ya’ni o‘quvchining tanlagan kasbi bilan bog‘liq virtual yoki amaliy mashg‘ulotlarda qatnashishi, bu sohada o‘zini sinab ko‘rishi juda samarali usullardan biridir. Bu o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini baholashi, ichki qiziqishlarini aniqlashi va ongi ravishda kasb tanlashiga zamin yaratadi.

Shuningdek, o‘quvchilarning tanlagan kasbi bo‘yicha muvaffaqiyatga erishgan insonlar bilan onlayn suhbatlar yoki master-klasslar o‘tkazilishi ham



motivatsiyani kuchaytiradi. Bu kabi uchrashuvlar o‘quvchilarni ilhomlantirib, ular uchun “namunali kasbiy obrazlar”ni shakllantirishga yordam beradi.

Interaktiv va ijodiy yondashuvlarning ahamiyati

Kasbiy motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlar – rolli o‘yinlar, kasbiy ssenariy asosidagi muammolarni hal qilish, guruhiy loyihalar va debatlar alohida ahamiyatga ega. Ushbu metodlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, muammoni hal qilish ko‘nikmalarini, liderlik sifatlarini va kasbiy jihatdan faol bo‘lish ehtiyojini shakllantiradi.

Ijodiy yondashuv orqali har bir o‘quvchining individualligini inobatga olish va ularni o‘z qiziqishlariga ko‘ra rag‘batlantirish kasbiy orientatsiyaning eng muhim jihatlaridan biridir. Bunda o‘qituvchi o‘quvchining qobiliyatları va xarakteriga qarab individual yondashuvi bilan ajralib turishi kerak. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali o‘quvchida o‘z tanlovi uchun javobgarlik hissi va mustahkam motivatsiya shakllanadi.

Yagona kasbiy yo‘naltirish tizimini yaratish zaruriyati

Mamlakatimizda yoshlarga kasb tanlashda ko‘maklashish, ularni bozor talablariga mos kasbga yo‘naltirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Biroq, ushbu faoliyat ko‘p hollarda epizodik yoki kampaniya tarzida amalga oshirilmoqda. Shu sababli, umumiyligi va uzlusizligi kasbiy yo‘naltirish tizimini shakllantirish zarur. Bu tizim maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha uzlusiz tarzda amalga oshirilishi, har bir yosh bosqichiga mos metodlar va yondashuvlarni o‘z ichiga olishi lozim.

Kasbiy motivatsiyani shakllantirish jarayonida shuningdek, mehnat bozorining real talablari, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, o‘quvchilarning ijtimoiy muhitdagi tajribalari ham hisobga olinishi zarur. Bu orqali nafaqat kasb tanlashga, balki tanlangan kasbda mustahkam faoliyat yuritishga ham tayyor kadrlar yetishtiriladi.

O‘quvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish murakkab, ammo muhim jarayondir. Bu jarayon o‘z ichiga pedagogik, psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni oladi. Samarali metodlardan foydalanish – bu o‘quvchilarning



qiziqishlarini chuqur o‘rganish, ularni amaliy mashg‘ulotlarga jalg etish, motivatsion tadbirlar o‘tkazish, shaxsiy yondashuvni amalga oshirish va zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasalarini, oila va mehnat bozori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, kasbiy yo‘naltirishning yagona tizimini shakllantirish orqali o‘quvchilarda barqaror va ongli kasbiy motivatsiyani qaror toptirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, yurtimizning kelajak taraqqiyoti uchun intiluvchan, bilimli va maqsadli yosh avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish — bu uzoq muddatli, izchil va tizimli yondashuvni talab qiladigan jarayondir. Ushbu motivatsiyani erta yoshdan boshlab shakllantirish orqali o‘quvchi o‘z kasbiy yo‘nalishini to‘g‘ri belgilaydi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va mas’uliyati ortadi. Samarali metodlardan foydalanish, zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish orqali ushbu jarayon samaradorligini yanada oshirish mumkin. Eng muhimi, bu boradagi barcha harakatlar o‘quvchining kelajagi, jamiyat uchun foydali va iqtidorli mutaxassis yetishtirish yo‘lida qo‘yilgan mustahkam qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov, I.A. (2008). *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent: Ma’naviyat.
2. Abdullayeva, G. (2020). *Kasb-hunar ta’limida innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Mamatqulov, D.M. (2019). *Psixologiya asoslari*. Toshkent: «Ilm Ziyo» nashriyoti.
4. Sultonova, Z. (2021). *Yoshlar psixologiyasi va kasb tanlash motivatsiyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Super, D. E. (1990). *A Life-Span, Life-Space Approach to Career Development*. San Francisco: Jossey-Bass Publishers.



6. Savickas, M. L. (2013). *Career Construction Theory and Practice*. In S. D. Brown & R. W. Lent (Eds.), *Career Development and Counseling: Putting Theory and Research to Work* (2nd ed.). Hoboken, NJ: Wiley.
7. Krumboltz, J. D. (2009). *The Happenstance Learning Theory*. *Journal of Career Assessment*, 17(2), 135–154.